

PRESS-TUR O‘TKAZILDI



Shahrimiz kun sayin chiroy ochib bormoqda. Yo‘llar, ko‘chalar, yangi qurilgan ko‘p qavatli uylarga boqib, naqadar zamon bilan hamohang rivojlanayotganimizga guvoh bo‘lyapmiz. Yorug‘ va ajib dizayn ko‘rinishidagi ko‘chalar, tungi shahar ham barchani birdek o‘ziga maftun qilgan. Shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turgan jihatlardan yana biri bu zamonaviy ko‘p qavatli uylar yangicha tipda bunyod etilayotganligidir.

Termiz shahrida 1991-yilga qadar ko‘p qavatli uy-joylar soni 405 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2016-yilga qadar yana 29 ta ko‘p qavatli uy joylar qurilishi xisobiga uy-joylar soni 434 taga yetkazilgan edi. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan Termiz shahrida so‘ngi 7 yil ichida 360 ta, 1096 xonadonli ko‘p qavatli uy-joylar qurilib, jami ko‘p qavatli uy-joylar soni 790 taga yetdi. Buning hisobiga 12500 nafar aholining uy-joyga bo‘lgan talabi qondirilishga erishildi. Shundan 3 855 tasi (41%) xonadon xotin-qizlarga to‘g‘ri keladi.

2023 yilda jami 34 ta 7, 9, 12, 14 va 16 qavatli 3487 xonadonli ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi belgilangan bo‘lib, bugungi kunda qurilish ishlari olib borilmoqda va yil yakuniga qadar foydalanish uchun tayyor holga keltirish reja qilingan. Ularning birgina misolida press-tur doirasida tashrif buyurilgan ko‘p qavatli, zamonaviy uy joylar

kompleksi shaharning "Do'stlik" mahallasi "Alisher Navoiy" ko'chasida qad rostlamoqda. Mazkur 3 ta-140 xonadondan iborat ko'p qavatli uy-joylarning qurilish ishlari to'liq yakunlanib, o'z egalariga topshiriladi.